

AGROTURIZM SOHASIGA INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNI BOSHQARISHNING KLASTER MEXANIZMI

Sayfulloyev Oybek Olimovich,

Buxoro davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasida tayanch doktoranti (PhD)

o.o.sayfulloyev@buxdu.uz <https://orcid.org/0009-0005-8552-3242>

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol11_iss4/a16

Annotatsiya

Ushbu maqolada investitsiya jarayonlarini boshqarish mexanizmi, ularning asosiy elementlari tadqiq qilingan. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotining etakchi tarmog'i sifatida turizm sohasiga xususan, agroturizm sohasiga investitsiyalarni jalb etishning ahamiyati yoritib berilgan. Agroturizm sohasiga investitsiyalarni jalb etishning boshqarish mexanizmlari tahlil qilingan. Kuchli bozor raqobati sharoitida o'zaro integratsiya tashkilotlarning samaradorligini hamda raqobatbardoshlikni oshirish hamda investitsion jozibadorlikni ta'minlashda yuqori ahamiyatga egaligi ta'kidlangan. Agroturizm sohasiga investitsiyalarni jalb etishni boshqarishning klaster mexanizmi sinergetik ta'sirga erishishning eng samarali mexanizmlaridan biri ekanligi qayd etilgan. Hududiy agroturizm klasterining tuzilishi ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. Investitsiya, boshqarish, boshqarish mexanizmi, qishloq xo'jaligi, agroturizm, integratsiya, sinergetik ta'sir, klaster, agroturizm klasteri, infrastruktura, investor.

КЛАСТЕРНЫЙ МЕХАНИЗМ УПРАВЛЕНИЯ ПРИВЛЕЧЕНИЕМ ИНВЕСТИЦИЙ В СФЕРУ АГРОТУРИЗМА

Сайфуллоев Ойбек Олимович

Бухарский государственный университет Базовый докторант кафедры экономики (PhD)

Аннотация

В данной статье рассмотрен механизм управления инвестиционными процессами, их основные элементы. Также было освещено значение привлечения инвестиций в сферу туризма как ведущей отрасли экономики Узбекистана, в частности в сферу агротуризма. Проанализированы механизмы управления привлечением инвестиций в сферу агротуризма. Отмечено, что в условиях жесткой рыночной конкуренции взаимная интеграция имеет большое значение для повышения эффективности и конкурентоспособности организаций и обеспечения инвестиционной привлекательности. Отмечается, что кластерный механизм управления привлечением инвестиций в сферу агротуризма является одним из наиболее эффективных механизмов достижения синергетического эффекта. Разработана структура регионального агротуристического кластера.

Ключевые слова: Инвестиции, менеджмент, механизм управления, сельское хозяйство, агротуризм, интеграция, синергетический эффект, кластер, агротуризм кластер, инфраструктура, инвестор.

CLUSTER MECHANISM FOR MANAGING INVESTMENT ATTRACTION IN THE FIELD OF AGROTOURISM

Sayfulloyev Oybek Olimovich,

Bukhara state university Basic doctoral student (PhD) of the Department of Economics

Abstract

This article discusses the mechanism of investment process management, their main elements. The importance of attracting investments in tourism as the leading sector of the economy of Uzbekistan, in particular in the field of agrotourism, was also highlighted. The mechanisms of management of attracting investments in the field of agrotourism are analyzed. It is noted that in conditions of fierce market competition, mutual integration is of great importance for improving the efficiency and competitiveness of organizations and ensuring investment attractiveness. It is noted that the cluster mechanism for managing the attraction of investments in the field of agrotourism is one of the most effective mechanisms for achieving a synergistic effect. The structure of the regional tourism cluster has been developed.

Key words: Investment, management, management mechanism, agriculture, agrotourism, integration, synergetic effect, cluster, agrotourism cluster, infrastructure, investor.

Kirish

Mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida investitsiyalarni samarali boshqarish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu sababli ham, iqtisodiyotning turli tarmoqlariga investitsiyalarni yo'naltirishda ilmiy asoslangan holda ish tutish, kapital sarmoyalarning qaytishini jadallashtirish, investitsiya loyihalarining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik jihatlari e'tibor qaratish hamda investitsiya mablag'larining tarmoq va soha taqsimotiga oid ilmiy tadqiqotlar olib borish muhimdir. Iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga investitsiyalarni jalb etishni boshqarish mavjud mablag'larga, vaqtdan va imkoniyatlardan samarali foydalanishga, turli xil risklarni, mavjud shart-sharoitlarni hisobga olgan holda mablag'larni samarali joylashtirishga va uning kirib kelishini rag'batlantirishning turli yo'llarini ishlab chiqishga qaratilgan. Boshqaruv mexanizmi tushunchasini boshqaruvda qo'llaniladigan ta'sir vositalari yoki ishlatiladigan dastaklar majmui sifatida ham belgilash mumkin. Boshqaruv mexanizmi muayyan tamoyillar, maqsadlar, yondashuvlar hamda ustuvorliklarga muvofiq shakllanadi. Boshqaruv mexanizmining o'ziga xosligi shundaki, u boshqaruv jarayonlarining tuzilishi, nisbati, ahamiyati va boshqalar bo'yicha o'zgarib turadigan ta'sir vositasidir. Boshqaruv mexanizmi, shuningdek, boshqaruv tizimi va jarayoni shakllanishi va rivojlanishi, boshqaruv samaradorligi, ijtimoiy ahamiyati va boshqalar nuqtai nazaridan o'zgarishi va baholanishi mumkin [4].

Bugungi kunda investitsiyalarni boshqarish jarayonida yangi zamonaviy innovatsion yondashuvlar paydo bo'lmoqda. Bozor muhiti, undagi talab va taklif o'zgaruvchan va oldindan prognoz qilish murakkab bo'lib qoldi. Bu esa biznes yuritish, turli sohalarga investitsiyalarni faol jalb etishni boshqarishda an'anaviy modellarni "almashtirish", nostandart boshqaruv qarorlari va yondashuvlarini, yangi qarashlar va vositalarni qo'llashni tazoqo qiladi.

Jahonda tashqi va ichki bozor muhitining tez o'zgarishi bozor subyektlari orasida integratsiya jarayonlarining kuchayishiga yordam berdi. Kuchli bozor raqobati sharoitida o'zaro integratsiya tashkilotlarning samaradorligini hamda raqobatbardoshlikni oshirish hamda investitsion jozibadorlikni ta'minlashda yuqori ahamiyatga ega.

Bozor ishtirokchilari o'rtasidagi integratsiyaning, yakka holda harakat qilishdan afzalligi sinergetik ta'sir yo'nalishining paydo bo'lishida namoyon bo'ldi. Sinergetika tushunchasi G'arbda 1969-yilda paydo bo'lgan. Zamonaviy sinergetik yo'nalishining yaratuvchisi Shtutgart universiteti professori Hermann Xaken hisoblanadi. Hakenning so'zlariga ko'ra, “sinergetika – bir-biri bilan murakkab tarzda o'zaro ta'sir qiladigan ko'p sonli qismlar, komponentlar yoki quyi tizimlardan iborat tizimlarni o'rganish bilan shug'ullanadi” [6].

“Sinergiya” atamasi yunoncha bo'lib, ikkita komponentdan iborat: “sin – birga” va “ergeia – mehnat [1], ya'ni birgalikdagi ish yoki birgalikdagi mehnat degan ma'noni bildiradi. Boshqacha qilib aytganda, sinergiya strategik sheriklik va o'zaro manfaatli hamkorlik shaklida namoyon bo'lishi mumkin bo'lgan o'zaro bog'liq va muvofiqlashtirilgan harakatlar sifatida ta'riflanishi mumkin. Ko'pgina tadqiqotchilar sinergetik ta'sir tushunchasini o'zaro integratsiya va hamkorlik tushunchalari bilan ifodalaydilar. Shuningdek, sinergetik ta'sir tenglik shaklida ham ifodalanadi: “ $1+1=3$ ”, “ $2+2>4$ ” va “ $2+2+$ sinergetik ta'sir = 5” [5].

Iqtisodiy tushuncha sifatida sinergetik ta'sir, integratsiya, turli xil jarayonlarning kuchli, mukammal muvofiqlashtirilgan tizimga birlashtirish jarayonida tashkilotning biznes jarayonlari samaradorligini oshirishda namoyon bo'ladigan natijaviy ta'sir hisoblanadi. Ya'ni, kuchli bozor raqobati sharoitida tadbirkorlik subyektlari alohida holda harakat qilgandan ko'ra, yaxshi ishlab chiqilgan va puxta o'ylangan integratsiya jarayoniga yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishishi mumkin. Jahon amaliyotida yuqori iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan loyihalarni amalga oshirish doirasida turli tadbirkorlik subyektlari va boshqaruv organlari hamda turli bozor ishtirokchilari o'rtasida samarali hamkorlikni tashkil etish bo'yicha katta tajriba to'plangan. Bunday vositalardan biri barcha manfaatdor tomonlarning o'zaro hamkorligida klasterlar faoliyatini yo'lga qo'yishdir. O'z navbatida sinergetik ta'sirga erishishning eng samarali mexanizmlaridan biri ham klasterlarni yaratishdir.

Ilmiy-iqtisodiy adabiyotlarda klasterlarning ko'plab ta'riflari mavjud bo'lib, ular bir-biridan ko'lami hamda yo'nalishi bilan farqlanadi, lekin umuman olganda klasterlarning mohiyati bir xil. AQShlik mashhur iqtisodchi M.Porter fikricha “Klaster bu – ma'lum bir sohada faoliyat yuritadigan, umumiy faoliyati bilan ajralib turadigan va bir-birini o'zaro to'ldiradigan geografik jihatdan bir-biriga bog'langan kompaniyalar va tegishli tashkilotlar guruhi” [2] dir.

Fikrimizcha, klasterlar sanoat va mintaqalarning barqaror iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishini ta'minlaydigan o'sish nuqtalariga aylanishi mumkin. Bugungi kunda klasterlar mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish strategiyasini shakllantirish jarayonida innovatsion va dolzarb hisoblanadi. Ushbu holat agroturizm bozor segmenti uchun ham ahamiyatli hisoblanadi.

Agroturizm klasteri – sohaga oid bozor ishtirokchilari, mahalliy hokimiyat organlari hamda tegishli vazirliklarning hamkorlikdagi birlashmasi hisoblanadi. Agroturizmni klasterlash esa - klasterning rivojlanish jarayonini hamda uning faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan boshqaruv tadbirlari majmuini anglatadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Agroturizm rivojlangan mamlakatlarda sohaga investitsiyalarni jalb etishni boshqarishning klaster mexanizmi bilan bog'liq jarayonlarni o'rganish usullari umumilmiy va tarixiy usullar hisoblanadi.

Tadqiqot jarayonida agroturizm rivojlangan mamlakatlarda sohaga investitsiyalarni jalb etishni boshqarishning klaster mexanizmini ishlab chiqishda tizimli yondashuv, qiyosiy va solishtirma tahlil, guruhlash usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Agroturizm iqtisodiy faoliyat turi sifatida qishloq xo‘jaligining tegishli sohalarida faoliyat olib boruvchilarning faoliyatini diversifikatsiya qilishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biridir. Hududlarda agriturizmni rivojlantirish va unga investitsiya oqimini ta‘minlash – raqobat muhiti, yetarlicha talabning va yondosh bo‘lgan rivojlangan xizmat ko‘rsatish sohalarning mavjudligidan tashqari ushbu hududda malakali kadrlar, infratuzilma va kapital kabi ixtisoslashtirilgan omillarni ham yaratilishini taqozo etadi. Ushbu maxsus omillarni yaratish maxsus dastur asosida uzoq muddatli va barqaror investitsiyalarni, qo‘shimcha xarajatlarni talab qiladi. Shuningdek, hududlarda agroturizmni muvaffaqiyatli rivojlanishi nafaqat tabiiy sharoitlarga, balki ulardan samarali foydalanish zaruriyatini ham talab qiladi. Davlat-xususiy sheriklik asosida agroturizm klasterlarini tashkil etish orqali davlatning faol qo‘llab-quvvatlovi yordamida ko‘zlangan maqsadga birmuncha tez erishish mumkin. Bundan tashqari, agroturizmga oid investitsiya loyihalarining muvaffaqiyatli amalga oshishi mintaqadagi mahalliy hokimiyat organlarining muvaffaqiyatli boshqaruviga ham bog‘liq. Hududlarda agroturizmning samarali rivojlanishini ta‘minlash kompleks yondashuvni, xususan, ushbu jarayonda bir nechta subyektlar, shu jumladan agroturistik loyihalarga investitsiyalarini yo‘naltirmoqchi bo‘lgan tashabbuskorlar, potensial sayyohlar, mahalliy hokimiyat organlari, tegishli vazirliklar vakillarining ishtirokini talab qiladi. Buning natijasida umumiy ko‘zlangan maqsadga erishish uchun subyektlar integratsiyasi yuz beradi.

Agroturizm klasterlari innovatsion tizimlarning bir turi bo‘lib, hududlarning samarali iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun turtki berishi mumkin. Agroturizm klasterlari muvaffaqiyatli ishlashi uchun istiqbolli loyihalarni investitsiyalashga qodir biznes tuzilmalarini birlashtirish zarur.

Agroturizm sohasiga investitsiyalarni jalb qilishni boshqarishning klaster mexanizmi bu sohaga investitsiyalarni jalb etishga yo‘naltirilgan ta‘sir tadbirlarining bir usuli bo‘lib, u umumiy maqsadga erishish uchun mavjud resurslardan samarali foydalanish va sohaga investitsiyalarni jalb qilish maqsadida agroturizm sohasiga aloqador bo‘lgan turli tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarishda o‘z aksini topadi. Agroturizm klasteri barcha ishtirokchilarning raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradigan tajriba, texnologiya va axborot almashinuvi uchun sharoit yaratadi. Agroturizm klasterlarini tashkil etishdan maqsad sohaga oid tadbirkorlikni rivojlantirish va investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishdir. Klaster mexanizmi ishtirokchilarning harakatlarini muvofiqlashtirish, ekspertlar yordamini ta‘minlash, marketing tadqiqotlari olib borish, mahsulot va xizmatlarni bozorga chiqarish imkonini beradi. Ushbu yondashuv mintaqaning raqobatbardoshligini oshirishga va yangi ish o‘rinlarini yaratishga yordam beradi.

Fikrimizcha hududiy agroturizm klasterining tuzilishi quyidagicha bo‘lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi (1-rasm).

Taklif etilayotgan agroturizm klasterining umumiy tuzilishi klaster yadrosi va uning atrofini o‘z ichiga oladi. Bunda hududiy klaster yadrosida sayyohlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri agroturizm xizmatlarini ko‘rsatadigan xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rin egallaydi. Klaster yadrosining atrofidan uning faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlaydigan, sohaga



1-rasm. Hududiy agroturizm klasterining tuzilishi¹

yondosh bo'lgan xizmatlar ko'rsatadigan va buning natijasida iqtisodiy va ijtimoiy samaraga erishishni maqsad qilgan subyektlar joylashadi. Masalan, agar subyekt faqatgina sayyohlarni mehmonxonada joylashtirish bo'yicha xizmatlarni taqdim etsa, klaster yadrosida emas uning atrofiga, agarda subyekt sayyohlarga qishloq hayoti va madaniyatiga oid turizm xizmatlarini bilan birga ularni joylashtirish xizmatlarini ko'rsatsa, ushbu subyekt klaster yadrosiga tegishli hisoblanadi. Hududiy agroturizm klasterini davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etilgan boshqaruv kompaniyasi boshqaradi. Boshqaruv kompaniyasi: 1) investitsiyalarni jalb qila olish; 2) ilmiy-innovatsion faoliyatni amalga oshira olish; 3) shaffoflikni ta'minlash; 4) xodimlarning yuqori malakasini ta'minlash; 5) jiplashgan holda aniq natijaga erishish; 6) o'zaro shartnoma munosabatlarini ishlab chiqish va o'rnata olish; 7) doimiy rivojlanish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim. Shuningdek, ushbu jarayonda davlat-xususiy sheriklik

asosida tashkil etiladigan boshqaruv kompaniyasi, klaster a’zolari hamda davlatning o’zaro munosabatlarini aniqlab olish muhim hisoblanadi.

Jahon tajribasida klasterlashning ikkita asosiy yondashuvi mavjud. Birinchi yondashuv tadbirkorlik subyektlari o’z tashabbuslari bilan mahalliy hokimiyat yoki tegishli organlar bilan hamkorlikda strategik rivojlanish uchun klasterlarga birlashish jarayoni klasteri shakllantirishning “ko’tarilish yondashuvi” yoki “ko’tarilish jarayoni” deb nomlanadi (ingl. “bottom-up approach”) [3]. Bu klasterlarni tashkil etishning ideal variant hisoblanadi. Biroq, o’z navbatida juda uzoq vaqtni hamda mavjud sharoitlarni talab qiluvchi murakkab yondashuv hisoblanadi.

Ikkinchi yondashuv mahalliy hokimiyat yoki tegishli vakolatli organlar tomonidan boshlangan klasteri shakllantirish “yuqoridan pastga yondashuv” yoki “yuqoridan pastga jarayon” deb nomlanadi (ingl. “top-down approach”). Ushbu yo’nalishda, iqtisodiy vaziyat, mavjud va mumkin bo’lgan tarmoqlararo munosabatlar to’liq tahlil qilinishi lozim. Keyinchalik, bunday tahlil asosida klaster sxemalarini yaratish bo’yicha aniq chora-tadbirlar shakllantiriladi hamda maqbul mexanizm yaratiladi.

Fikrimizcha, O’zbekistonda agroturizmning yetarli darajada rivojlanmaganligi, potensial investorlar hamda sayyohlar orasida yetarli axborot mavjud emasligi, sohaga investitsiyalarni jalb etishning individual konsepsiyasi ishlab chiqilmaganligi holatida dastlabki bosqichda agroturizmni klasterlashning top-down yondashuvidan foydalanish yuqori samaradorlik keltirishi mumkin.

Dastlabki bosqichda agroturizm klasteri konsepsiyasini ishlab chiquvchi hamda faoliyat yuritishini ta’minlovchi vakolatli organlar vakillaridan iborat klasterning direktorlar kengashi tashkil etiladi. Direktorlar kengashi 3 bosqichdan iborat klasteri boshqarish va rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqadi. Direktorlar kengashi tomonidan 2-bosqich yakunida davlat-xususiy sheriklik shaklidagi boshqaruv kompaniyasi shaklida hududiy agroturizm klasteri tashkil etiladi. Direktorlar kengashi hamda davlat-xususiy sheriklik shaklidagi boshqaruv kompaniyasi shaklida hududiy agroturizm klasteri hamkorlikda 3-bosqichni amalga oshirishadi.

Hududiy agroturizm klasterini yaratish va faoliyat yuritishini boshqarishning 3 xil modeli taklif etiladi.

1-model. Poli investor modeli.

Bunda klasterning direktorlar kengashi tomonidan hududlarning agroturizm bo’yicha tabiiy, investitsion va boshqa parametrlar bo’yicha salohiyati tahlil qilingan holda maqbul bo’lgan hududlar aniqlanadi. Ushbu hududlarda vakolatli organlar tomonidan maxsus yer maydonlari ajratiladi. Ilmiy-tadqiqot muassasalari tomonidan jahon tajribasi tahlil qilingan holda agroturizm xizmatlari ko’rsatish uchun maqbul bo’lgan yer maydoni miqdori, ularda joylashadigan xizmat ko’rsatuvchilar xaritasi ishlab chiqiladi. Tanlangan hududlarda ishlab chiqilgan agroturizm kompleksi xaritasi asosida 3 ta: qishloq xo’jaligi faoliyati olib borish, sayyohlarga turizm xizmatlarini taklif qilish, sayyohlarga boshqa yondosh xizmatlarni taklif qilish yo’nalishlari bo’yicha ko’plab ixtisoslashgan investorlar jalb qilinadi. Agroturizm klasterning alohida loyihalariga investorlarni jalb qilish uchun yagona investitsiya platformasi yaratiladi. Kompleksda qishloq xo’jaligi faoliyati olib boruvchilar uchun unumli yer maydoni, sayyohlarga turizm xizmatlarini va boshqa yondosh xizmatlarni taklif qiluvchilar uchun zarur bo’lgan moddiy-texnik baza va ichki infratuzilmani yaratishlari uchun zarur bo’lgan maxsus uchastkalar taklif qilinadi. Tashqi infratuzilma vakolatli organlar tomonidan ta’minlanadi.

Yuqoridagi 3 ta guruhga kiruvchi subyektlar o’rtasidagi huquqiy, moliyaviy va boshqa munosabatlar ular birlashadigan davlat-xususiy sheriklik shaklidagi boshqaruv kompaniyasi tomonidan ta’minlanadi. Klaster barcha ishtirokchilarining manfaatlarini hisobga oladigan va eng istiqbolli yo’nalishlarga investitsiyalarni jalb qiladigan mintaqada agroturizmni rivojlantirishning umumiy strategiyasi ishlab chiqiladi. Ta’kidlash lozimki, ushbu modelning o’ziga xos ustunlik hamda zaif tomonlari mavjud (1-jadval).

1-jadval

Poli investor modelining ustun va zaif tomonlari²

Ustun tomonlari	Zaif tomonlari
<ul style="list-style-type: none"> ✓ Agroturizm kompleksida jalb qilinadigan investorlar o’zlarining ixtisosliklari bo’yicha faoliyat turi bilan band bo’lishadi; ✓ Har bir subyekt o’zi ixtisoslashgan hamda yaxshi tushunadigan faoliyatni olib borishi natijasida sayyohlarga sifatli xizmat turlari taklif qilinadi; ✓ Agroturizm kompleksida ko’rsatiladigan xizmat turlarining kuchli diversifikatsiyasi ro’y beradi; ✓ Qishloq xo’jaligida faoliyat olib boruvchilar bilan sheriklik aloqalarini o’rnatish va ularning mahsulotlaridan mehmonxona biznesini rivojlantirish uchun foydalanish imkoniyati yaratiladi. 	<ul style="list-style-type: none"> ✓ Agroturizm kompleksida bir-biridan mustaqil bo’lgan ko’plab subyektlar jalb qilinishi natijasida murakkab munosabatlar tizimining shakllanishi; ✓ Faqatgina qishloq xo’jaligi faoliyati bilan shug’ullanuvchi subyektlar uchun agroturizm xizmatlaridan umumiy daromad miqdorining taqsimlanishi zaruriyatining yuzaga kelishi; ✓ Yer bilan bog’liq munosabatlarning murakkabligi; ✓ Cheklangan ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatish ko’lami hamda biznesni kengaytirish imkoniyatlari; ✓ Agroturizm xizmatlariga talabning mavsumiy o’zgarishi mavjudligi, bu esa daromadlarning beqarorligiga olib kelishi mumkin.

2-model. Mono investor modeli

Bunda ham 1-model singari klasterning direktorlar kengashi maqbul bo’lgan hududlar aniqlanadi, ilmiy-tadqiqot muassasalari tomonidan jahon tajribasi tahlil qilingan holda agroturizm xizmatlari ko’rsatish uchun maqbul bo’lgan yer maydoni miqdori hamda ularda joylashadigan xizmat ko’rsatish obyektlari xaritasi ishlab chiqiladi. Farqi, tanlangan hududlarda ishlab chiqilgan agroturizm kompleksi xaritasi asosida har bir hudud uchun yagona investor jalb qilinadi. Qishloq xo’jaligi faoliyati olib borish, turizm va unga yondosh bo’lgan xizmatlarni ko’rsatish yagona investor tomonidan amalga oshiriladi. Tanlangan hududlardagi barcha investorlar yagona agroturizm klasterida birlashishadi. Agroturizm komplekslarini turli xil ko’rinishlarda, bir-birini takrorlamaydigan hamda bir-birini to’ldiruvchi shaklda loyihalashga alohida e’tibor beriladi. Zarur tashqi infratuzilma vakolatli organlar tomonidan ta’minlanadi. Ushbu modelning ham o’ziga xos ustunlik hamda zaif tomonlari mavjud (2-jadval).

2-jadval

Mono investor modelining ustun va zaif tomonlari³

Ustun tomonlari	Zaif tomonlari

² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

³ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

<ul style="list-style-type: none"> ✓ Barcha agroturizm xizmatlari bitta investor tomonidan tashkil etilishi natijasida boshqaruv jarayonlarining soddalashuvi; ✓ Bozor sharoitidan kelib chiqib, klasterning strategiyasi va taktikasida o'zgarishlar oson yuz beradi; ✓ Klasterga a'zo agroturizm komplekslari orasida ularning rivojlanishiga sabab bo'luvchi sof raqobat yuzaga keladi; ✓ Agroturizm istiqbolli soha bo'lganligi sababli boshqa raqobatchilarga nisbatan oldinroq bozorga kirib kelish imkoniyati yaratiladi. 	<ul style="list-style-type: none"> ✓ Yirik investorlarni jalb qilish muammosi; ✓ Muvaffaqiyatli agroturistik kompleksini yaratish uchun investorning katta mablag' sarflashiga to'g'ri keladi; ✓ Investordan bir vaqtda qishloq xo'jaligi hamda turizm sohasida bilim va tajribaga ega bo'lish talab etiladi; ✓ Barcha faoliyat turlari bir investor tomonidan olib borilishi natijasida xizmatlar sifatining pasayish ehtimoli.
--	--

3-model. Klassik model.

Bu model hududning mavjud agroturistik salohiyatidan foydalanishga asoslangan. Bunda vakolatli organlar tomonidan birinchi navbatda o'ziga xos bo'lgan, an'analar saqlanib qolgan, agroturistik potentsiali yuqori bo'lgan hududlar (qishloqlar) tanlanadi. Ushbu hududlarda agroturizm bo'yicha ma'lumotlar berish, ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatini yoritib berishga asoslangan chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Sohaga o'z mablag'larini yo'naltirish istagini bildirgan qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi subyektlar hamda qishloq aholisi ro'yxati shakllantiriladi. Potensial investorlar tanlanadi. Ularga har tomonlama yordam ko'rsatiladi. Qishloq aholisi uchun oilaviy mehmon uylari, qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi subyektlar uchun agroturizm komplekslari loyihalarining namunaviy shakllari taklif qilinadi. Barcha subyektlar umumiy agroturizm klasterida birlashishadi. Zarur infratuzilma obyektlari yaratiladi. Ushbu modelning ham o'ziga xos ustunlik hamda zaif tomonlari mavjud (2-jadval).

3-jadval

Klassik modelning ustun va zaif tomonlari⁴

Ustun tomonlari	Zaif tomonlari
<ul style="list-style-type: none"> ✓ O'ziga xos turizm qishloqlari shakllanadi; ✓ Qishloq aholisining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoriga ijobiy ta'sir ko'rsatadi; ✓ Qishloqlar infratuzilmasi shakllanadi; ✓ Mahalliy ishlab chiqarish rivojlanadi hamda aholi tomonidan yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining faol savdosi yo'lga qo'yiladi; ✓ Mahalliy an'analar va madaniy qadriyatlar uzoqroq saqlanib qoladi. 	<ul style="list-style-type: none"> ✓ Qishloqlarda xizmat ko'rsatishning past darajasi tufayli sayyohlik bozorining yo'qotishlarga uchrashi ehtimoli; ✓ Tashrif buyurgan sayyohlar mahalliy aholining kundalik hayotida ma'lum bir noqulayliklarga sabab bo'lishi; ✓ Sayyohlar uchun infratuzilmani yaratish zarurati qishloq xo'jaligida faoliyat olib boruvchilar uchun qo'shimcha moliyaviy xarajatlarni talab qilishi, bu esa ularning iqtisodiy barqarorligiga ta'sir qilishi mumkin; ✓ Agroturizm qishloq joylariga tashrif buyuruvchilar sonining ko'payishi va tabiiy resurslarga bo'lgan talabning oshishi bilan

	bog‘liq ekologik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.
--	--

Xulosa

Fikrimizcha, agroturizm sohasiga investitsiyalarni jalb qilishni boshqarishning klaster mexanizmi bu eng samarali va istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi. Taklif etilayotgan agroturizm klasteri modellarining asosiy vazifasi hududlarda agroturizmni rivojlantirish uchun qulay investitsiya muhitini yaratishdir.

Agroturizm klasterlari boshqa klasterlar bilan farq qilishi mumkin, chunki ular birgalikdagi faoliyatni tashkil qilishda yanada moslashuvchanlikni ta‘minlaydi. Buning sababi shundaki, agroturizmda turli xil biznes turlari o‘z aksini topadi: qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishdan tortib restoran va mehmonxona biznesigacha. Klaster doirasida ushbu turdagi korxonalar yangi mahsulot va xizmatlarni yaratish uchun birlashishi mumkin.

Bundan tashqari, agroturizm klasteriga birlashish ko‘rsatiladigan xizmatlar va ishlab chiqariladigan mahsulotlar sifatini sezilarli darajada oshishiga xizmat qiladi. Klaster a‘zolari o‘rtasida tajriba va bilim almashinishi yuz berishi orqali ular o‘z mahsulotlari va xizmatlari sifatini yaxshilashlari, shuningdek, yangi mahsulotlarni ishlab chiqishlari hamda agroturizmni rivojlantirishdan manfaatdor bo‘lgan investorlar klasterda ishtirok etishdan foyda ko‘rishlari mumkin. Investorlar agroturizm klasteri doirasida amalga oshiriladigan turli loyihalarga sarmoya kiritishlari, yangi sayyohlik marshrutlari yaratishlari hamda bu orqali yangi bozorlarga kirib borishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Абдокова Л.З. Синергетический эффект как результат эффективного управления // Фундаментальные исследования. – 2016. – № 10-3. – С. 581-584;
2. Портер, М. Э. Конкуренция / М. Портер. - М.: Изд. дом «Вильямс», 2005. 608 с.
3. Портер М.Э. Международная конкуренция. М.: Вильямс, 2001. 495 с.
4. Толчинская М. Н. Содержание механизма управления инвестиционной деятельностью в регионе // Terra Economicus. – 2008. – Т. 6. – №. 1-2. – 323 С.
5. Финогенова Е.А. Synergetic effect: approaches to definition and classification// Вестник науки и образования. – 2017. – № 5 (29). Том 1 – С. 69-72;
6. Хакен Г. Синергетика. М.: Мир, 1980. 117 с., Chaos and order in nature / Ed. by H.Haken. B. etc. 1980. 271 p.